

KREDIT VA MIKROMOLIYALASHTIRISH TIZIMINING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI O'RNI

Ulug'bek Erkinovich Qurbanov

Yoshlar ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari

Iqtisodiyot fakulteti O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent shahar Olmazor tumani universitet ko'chasi

E-mail: kurbanovulug5@gmail.com

Yusupov Diyorbek Baxtiyor o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar 1-bosqich talabasi

Iqtisodiyot fakulteti O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent shahar Olmazor tumani universitet ko'chasi

E-mail: yusupovdiyorbek624@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada kredit va mikromoliyalashtirish tizimining aholi daromadlarini oshirishdagi o'rni iqtisodiy jihatdan tahlil qilinadi. Kredit munosabatlarining iqtisodiy mazmuni, uning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ta'siri hamda mikromoliyalashtirish orqali aholini o'zini o'zi band qilish darajasini oshirish imkoniyatlari yoritib beriladi. Shuningdek, mikrokreditlash mexanizmlarining kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati hamda kambag'allikni qisqartirishdagi roli ko'rib chiqiladi. O'zbekiston tajribasi asosida aholining daromad manbalarini kengaytirishda mikromoliyaviy institutlarning samaradorligi baholanadi va tizimni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: kredit, mikromoliyalashtirish, daromad, kichik biznes, bandlik, tadbirkorlik, kambag'allik

Abstract

This article economically analyzes the role of the credit and microfinance system in increasing household incomes. The economic essence of credit relations, its impact on the development of entrepreneurial activity, and the possibilities of increasing self-employment through microfinance are described. The importance of microcredit mechanisms in supporting small business and family entrepreneurship, as well as their role in reducing poverty, are also examined. Based on the experience of Uzbekistan, the effectiveness of microfinance institutions in expanding income sources is evaluated and scientific recommendations for improving the system are proposed.

Keywords: credit, microfinance, income, small business, employment, entrepreneurship, poverty.

Аннотация

В данной статье с экономической точки зрения анализируется роль кредитной и микрофинансовой системы в повышении доходов населения. Рассматриваются экономическая сущность кредитных отношений, их влияние на развитие предпринимательской деятельности, а также возможности повышения уровня самозанятости посредством микрофинансирования. Также изучается значение механизмов микрокредитования в поддержке малого бизнеса и семейного предпринимательства и их роль в сокращении бедности. На основе опыта Узбекистана оценивается эффективность микрофинансовых институтов в расширении источников доходов населения и предлагаются научные рекомендации по совершенствованию системы.

Ключевые слова: кредит, микрофинансирование, доход, малый бизнес, занятость, предпринимательство, бедность.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlarini barqaror oshirish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Daromadlarning ortishi aholining turmush darajasini yaxshilaydi, ichki iste'molni kengaytiradi hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Ushbu jarayonda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa kredit va mikromoliyalashtirish tizimini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Kredit iqtisodiyotda vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qayta taqsimlash orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan muhim moliyaviy instrument hisoblanadi. U tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa kichik biznes subyektlari uchun kredit resurslari faoliyatni boshlash va rivojlantirishning asosiy moliyaviy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda mikromoliyalashtirish tizimi aholining kam ta'minlangan qatlamlarini moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olishda muhim vosita sifatida shakllanmoqda. Mikro kreditlar, mikrolizing va boshqa moliyaviy xizmatlar orqali fuqarolarning o'zini o'zi band qilishi, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda qo'shimcha daromad manbalarini yaratish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa kambag'allik darajasini kamaytirish va iqtisodiy faollikni oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolaning maqsadi kredit va mikromoliyalashtirish tizimining aholi daromadlarini oshirishdagi iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish, ularning bandlikni ta'minlash va kichik biznesni rivojlantirishdagi rolini ochib berish hamda tizim samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Kredit tizimining iqtisodiy mohiyati

Kredit iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, u vaqtincha bo'sh pul mablag'larini qayta taqsimlash asosida qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Kreditning asosiy mohiyati mablag'lardan vaqtincha foydalanish evaziga ularni belgilangan muddatda va foiz to'lash sharti bilan qaytarishdan iborat. Ushbu mexanizm iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali

harakatini ta'minlaydi. Kreditning muhim funksiyalaridan biri qayta taqsimlash funksiyasi hisoblanadi. Bu orqali iqtisodiyotning bir sohasida vaqtincha bo'sh turgan mablag'lar boshqa sohalarga yo'naltiriladi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi ta'minlanadi. Natijada korxonalar va tadbirkorlar o'z faoliyatini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda mahsulot hajmini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Kredit shuningdek rag'batlantiruvchi funktsiyani ham bajaradi. Kredit mablag'laridan samarali foydalanish zarurati qarz oluvchini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga, xarajatlarni kamaytirishga va daromadni ko'paytirishga undaydi. Shu sababli kredit iqtisodiy faollikni oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda kreditning o'zni beqiyosdir. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun yetarli boshlang'ich kapitalga ega bo'lmagan fuqarolar kredit orqali ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini yo'lga qo'yishlari mumkin. Bu esa yangi ish o'rinlari yaratilishiga va aholi daromadlarining ortishiga olib keladi. Shunday qilib, kredit tizimi iqtisodiyotda investitsiya jarayonlarini jadallashtiradi, ishlab chiqarish hajmini kengaytiradi hamda bandlikni oshirish orqali aholining daromadlari ko'payishiga xizmat qiladi.

Jadval 1. O'zbekistonda bank kreditlari hajmining o'sishi

Sana	Jami kreditlar (mlrd so'm)	O'sish sur'ati
01.01.2024	471 406	—
01.01.2025	533 121	+13%
01.06.2025	567 685	+7%
01.01.2026	604 002	+6%

Mazkur jadval ma'lumotlari bank kreditlari hajmining yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. 2024 yil boshidagi 471 406 mlrd so'mlik kredit portfeli 2026 yilga kelib 604

002 mlrd so'mga yetgan. Bu iqtisodiyotda moliyaviy resurslarga bo'lgan talab ortib borayotganini va kreditlash jarayonining kengayayotganini bildiradi. Kredit hajmining oshishi tadbirkorlik faoliyati va investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, aholi daromadlarining o'sishiga xizmat qiladi.

Mikromoliyalashtirishning aholi daromadlariga ta'siri

Mikromoliyalashtirish aholining moliyaviy xizmatlardan yetarli darajada foydalana olmaydigan qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizim hisoblanadi. U asosan kichik hajmdagi kreditlar, mikrolizing, mikrojamg'arma va sug'urta xizmatlari orqali amalga oshiriladi. Mazkur mexanizm kam daromadli aholi qatlaminin iqtisodiy faolligini oshirish va ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mikrokreditlar fuqarolarga kichik biznes faoliyatini boshlash yoki kengaytirish imkonini beradi. Masalan, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida faoliyat yuritayotgan shaxslar zarur asbob-uskunalar yoki xomashyo xarid qilish uchun mikrokreditlardan foydalanadilar. Natijada ular mustaqil daromad manbaiga ega bo'lib, o'zini o'zi band qilish darajasi ortadi. Mikromoliyalashtirishning yana bir muhim jihati oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishidir. Oilaviy biznesni yo'lga qo'yish orqali bir nechta oila a'zolari doimiy ish bilan ta'minlanadi va bu uy xo'jaligi daromadining barqaror o'sishiga olib keladi. Shu orqali nafaqat ishsizlik kamayadi, balki hududlarning iqtisodiy faolligi ham ortadi. Mikromoliyaviy xizmatlar kambag'allikni qisqartirishda ham muhim rol o'ynaydi. Doimiy daromad manbaiga ega bo'lgan fuqarolar ijtimoiy yordamga qaramlikdan chiqib, iqtisodiy jihatdan mustaqil subyektga aylanadi. Bu esa umumiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, mikromoliyalashtirish tizimi aholining o'zini o'zi band qilishini ta'minlash, kichik biznesni rivojlantirish va barqaror daromad manbalarini shakllantirish orqali aholi farovonligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Jadval 2. Kichik biznes va bandlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Ulushi
Bandlikdagi ulushi	74–75%
YAIMdagi ulushi	50% dan ortiq
Yangi ish o'rinlarining asosiy manbai	Kichik biznes

Mazkur jadval O'zbekistonda aholining asosiy daromad manbai kichik biznes sektori ekanini ko'rsatadi. Band aholining 74–75 foizi aynan ushbu sohada faoliyat yuritadi va YAIMning 50 foizdan ortig'i ham kichik biznes hissasiga to'g'ri keladi. Yangi ish o'rinlarining asosiy qismi ham shu sektor orqali yaratilgani sababli kredit va mikromoliyalashtirish tizimi aholining daromadlarini oshirishda muhim iqtisodiy omil hisoblanadi.

O'zbekiston tajribasi

So'nggi yillarda O'zbekistonda aholi daromadlarini oshirish va bandlikni ta'minlash maqsadida kredit va mikromoliyalashtirish tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan mikrokreditlar fuqarolarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun zarur boshlang'ich kapitalni shakllantirishga yordam bermoqda. Ayniqsa, kasanachilik, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish va chorvachilik yo'nalishlarida ajratilgan imtiyozli kreditlar aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada ko'plab fuqarolar o'z biznesini yo'lga qo'yib, barqaror daromad manbaiga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari, oilaviy

tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilayotgan moliyaviy mablag'lar kam ta'minlangan oilalarning iqtisodiy faolligini oshirdi. Kredit mablag'lari hisobidan issiqxonalar tashkil etish, chorva mollarini xarid qilish, tikuvchilik va savdo faoliyatini yo'lga qo'yish orqali aholining daromadlari sezilarli darajada ortmoqda. Bu esa hududlarda kambag'allik darajasini kamaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mikromoliyaviy tashkilotlar va lombardlar faoliyatining kengayishi moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirdi. Natijada avvallari bank xizmatlaridan foydalana olmagan aholining ham moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu esa iqtisodiyotda tadbirkorlik muhitining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonda kredit va mikromoliyalashtirish tizimining rivojlanishi aholining daromad manbalarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda iqtisodiy faollikni oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Muammolar va takliflar

Kredit va mikromoliyalashtirish tizimi aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o'ynashiga qaramay, uning samaradorligini cheklovchi ayrim muammolar ham mavjud. Eng avvalo, ayrim hollarda kredit mablag'laridan maqsadsiz foydalanish kuzatiladi. Tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirilishi lozim bo'lgan mablag'lar iste'mol xarajatlariga sarflanishi natijasida qarz oluvchining daromadi oshmaydi va kreditni qaytarish qiyinlashadi. Yana bir muhim muammo — moliyaviy savodxonlik darajasining yetarli emasligidir. Ba'zi fuqarolar biznes reja tuzish, xarajat va daromadni hisoblash hamda risklarni baholash ko'nikmalariga ega emasligi sababli kredit mablag'laridan samarali foydalana olmaydi. Bu esa qarzдорlikning ortishiga olib keladi. Foiz stavkalarining nisbatan yuqoriligi ham ayrim tadbirkorlar faoliyatini kengaytirishga to'sqinlik qilmoqda. Yuqori foiz to'lovlari foydaning kamayishiga va biznesning barqaror rivojlanmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada kreditning iqtisodiy samarasi pasayadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir qator

choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Avvalo, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish zarur. Kredit ajratishdan oldin biznes reja tuzish bo'yicha maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish ham ijobiy samara beradi. Shuningdek, imtiyozli kreditlar ulushini ko'paytirish va foiz stavkalarini bosqichma-bosqich pasaytirish tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantiradi. Bundan tashqari, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanish ustidan monitoringni kuchaytirish, tadbirkorlarga konsultatsion yordam ko'rsatish hamda mikromoliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish tizim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kredit va mikromoliyalashtirish tizimi aholi daromadlarini oshirishning muhim iqtisodiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Kredit resurslari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda tadbirkorlik faolligini oshirish orqali daromadlar o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mikromoliyalashtirish esa ayniqsa kam daromadli qatlamlarni moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olib, ularning o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali barqaror daromad manbalari shakllanadi hamda kambag'allik darajasi qisqaradi. O'zbekiston tajribasi ham ushbu tizim iqtisodiy faollikni oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutishini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, kredit mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash, moliyaviy savodxonlikni oshirish va imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish tizim samaradorligini yanada kuchaytiradi. Kelgusida mikromoliyaviy xizmatlarni takomillashtirish orqali aholining daromadlarini barqaror oshirish va iqtisodiy farovonlikni mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar va hisobotlar*. <https://www.cbu.uz>

2. O'zbekiston Respublikasining "Mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari.
4. Abdurahmonov Q.X. **Iqtisodiyot nazariyasi**. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
5. Karimov N.G'. **Bank ishi**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. World Bank. *Microfinance and Poverty Reduction*. <https://www.worldbank.org>
7. Ledgerwood J. **Microfinance Handbook: An Institutional and Financial Perspective**. – Washington DC, World Bank Publications.
8. Rosenberg R. *Measuring Results of Microfinance Institutions*. – CGAP Working Paper.